

## SAFO MUG‘ANNIY IJODIDA MUSALLAS SHE’R SHAKLI

**Qurbanova Kumushoy Rashidovna,**

*O‘zbekiston Milliy universiteti*

*Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası*

*stajyor-o‘qituvchisi*

*ORCID: 0009-0000-7186-236X*

*E-mail: qurbanovakumushoy@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan xorazmlik shoir Safo Mug‘anniy ijodiga oid musallas shakliga oid she‘r tahlilga tortilgan. She‘rda shakl va mazmun jihatidan yuz bergan yangilanishlar ochib beriladi. O‘zbek adabiyotida musallas shaklida sanoqli she‘rlar yozilgan bo‘lib, Safo Mug‘anniy musallasi maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan yaratilgan musallas shaklidagi she‘r bilan qiyoslanadi hamda an‘ana va o‘ziga xosliklar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Musammat, musallas, Safo Mug‘anniy, barmoq vazni, ma‘rifatparvarlik g‘oyasi.

**Abstract.** This article analyzes a poem related to the musallas form by the Khorezm poet Safo Muganni, who lived and worked in the late 19th and early 20th centuries. The poem reveals the updates that occurred in terms of form and content. In Uzbek literature, few poems have been written in the form of musallas, and Safo Mughani's musallas is compared in the article with the musallas poem created by Hamza Hakimzoda Niyazi, and the tradition and specifics are highlighted.

**Keywords:** Musammat, musallas, Safo Mughani, barmoq, the idea of enlightenment.

**Аннотация.** В данной статье анализируется стихотворение о форме мусаллас, относящееся к творчеству хорезмского поэта Сафо Муганни, жившего и творившего в конце XIX - начале XX веков. В стихотворении раскрываются изменения, произошедшие с точки зрения формы и содержания. В узбекской литературе написано немного стихотворений в форме мусалласа, а мусалласа Сафо Муганни в статье сравнивается с стихотворением в форме мусалласа, созданным Хамзой Хакимзаде Ниязи, а также освещаются традиции и особенности.

**Ключевые слова:** Мусаммат, мусаллас, Сафо Муганни, бармок, просветительская идея.

**Kirish.** Mumtoz adabiyotimiz tarixida musammat she‘r shakllarining o‘ziga xos o‘rni bor. Sababi musammat – o‘zbek mumtoz she‘riyatining g‘azaldan keyingi eng faol shakllaridan biridir. Musammat arabcha “tasmit” so‘zidan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma‘nosi “marvarid donalarini ipga tizmoq – tasmitlamoq”dir.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbek mumtoz adabiyotida musammatlarning kirib kelishi, Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asaridagi ma‘lumotga ko‘ra, XV asrning birinchi yarmi Xorazm adabiy muhitiga to‘g‘ri keladi. Hofiz Xorazmiy musammat she‘riy shakllaridan bo‘lgan 9 band 45 misradan iborat muxammas yaratgan. Xorazm she‘riyatini maxsus o‘rgangan olim Mo‘minjon Sulaymonov bu haqida shunday izohlagan: “Hofiz Xorazmiyning tarkibband va muxammasi, ikki mustazodi garchi son jihatidan kam bo‘lsa ham, bu janrlarning o‘zbek adabiyotidagi dastlabki mumtoz namunasi hisoblanishi bilan qimmatlidir” [1:12].

**Tahlillar va natijalar.** XX asr boshlari Xorazm shoirlari adabiy merosida musammat she‘r shakllari alohida o‘rin tutadi. Sababi o‘zbek adabiyoti tarixida eng ko‘p musammat ayni shu davrda Xorazmda bitilgan. XX asr boshlarida 3 ta turkiy devon tartib bergan Ahmad Tabibiyning o‘zi turkiy (o‘zbek) tilda jami 367 ta musammat bitgani ma‘lum

[2:35]. Xorazm adabiy muhitida deyarli barcha shoirlar ijodida Hofiz Xorazmiydan boshlangan musammatning musallasdan to muashshargacha bo'lgan barcha shakllari kuzatiladi. Hatto o'zbek mumtoz adabiyotida eng kam uchraydigan musabba va mutassa' shakllarini ham biz Xorazm shoirlari ijodida kuzatamiz. XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Xorazm adabiy muhitida ayniqsa tazmin musammatlar yaratish taraqqiy etgan. Mazkur adabiy muhitda Munis ijodida muxammas va musaddas; Ogahiyda murabba', muxammas, musaddas va musamman; Avaz O'tarda ham murabba', muxammas, musaddas va musamman; Feruz ijodida muxammas va musaddas; Komyob ijodida murabba', muxammas, musaddas va musamman; Tabibiyda esa murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar shakllari mavjud bo'lsa, boshqa ko'plab shoirlar ijodida musammatning asosan ikkita turi, ya'ni muxammas va musaddas shakllari kuzatiladi. XX asrning boshlarida xorazmlik Mulla Bekjon Rahmon tomonidan 1923-yilda tuzilgan "Yug'urumiya" to'plami tarkibida musallas, murabba' (marsiya murabba'lar), muxammas, musaddas, musabbalar uchraydi.

Musallas musammat shakllari ichida har bandi a-a-a, b-b-a, d-d-a tarzida qofiyalanuvchi eng kichik shakldir. Musallasning dastlabki namunalari o'zbek adabiyotida Uvaysiyda keltiriladi degan qarashlar mavjud edi [3:98], lekin R.Orzibekov tadqiqotlarida, D.Yusupova "Aruz va mumtoz poetikaga kirish" darsligida hamda Q.Mamiraliyev "Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi" monografiyasida [4:165] mumtoz adabiyotdagi musallasning dastlabki namunasi Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida uchrashini va asar aynan Nosiruddin To'qbug'abekka bag'ishlangan musallas bilan boshlanishini ta'kidlashadi:

Ilhom umul tuzun qiliq

Billing arig' haddin chiqa

Ko'kdin azizrak himmati.

Mo'risi beklik dinida

So'rar ani yulnub yaqo

Qizg'anchi uqbo milkati.

Asli mo'g'ul erkan ko'nub,

Islom uchun tuttu yaqo

Bo'ldi Rasulning ummati [5:10].

Ushbu she'r aruzning rajaz bahrida yozilgan. Qofiyalanish jihatidan musallas talablariga to'la javob berolmaydi. Lekin bir necha bandlardan tuzilganligi, ularning uch misradan iboratligi va har bandning oxirgi misralari o'zaro qofiyalanishi ayni shu she'rning mumtoz adabiyotdagi musallasning dastlabki namunasi deya olishimizga asos bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, turkiy adabiyotga musallas she'r shaklining kirib kelishi ham Xorazm adabiy muhiti bilan bog'liq ekan.

XV asrdan to XX asrgacha bo‘lgan davrda Xorazm adabiy muhitida musallasning boshqa namunalari uchramaydi. “Yug‘urumiya” to‘plamida musallas shaklida yozilgan yana bitta she‘r uchraydi:

Dunyo yuzi yoqutlandi hurriyatning nurindan,  
Kambag‘allar ozod o‘ldi mustabidlar zulmindan,  
Ay qordoshlar, ay qordoshlar, ne turmaysiz uyqudin.  
Uyolmangiz eski zamon qaytib yana gelur deb,  
G‘ofil bo‘lmang galdi baxting bo‘shga qolmang ilmdin,  
Ay qordoshlar, Ay qordoshlar, ne turmaysiz uyqudin.  
Boshqa millat getdi olg‘a, sizlar qoldingiz keyinda,  
G‘ayrat qilib cholishinglar xo‘rliq yomon o‘limdan,  
Ay qordoshlar, ay qordoshlar, ne turmaysiz u yoqdin [6:66].

Mug‘anniyning musallas shaklida yozilgan ushbu olti bandli she‘ri 1922-yil 4-fevralda vaqtli matbuot sahifalarida e‘lon qilingan. Birinchi bandning har uchala misrasi a-a-a tarzida o‘zaro qofiyalangan. Qolgan bandlari esa b-a-a, d-a-a, e-a-a tarzida qofiyalanadi. Ushbu she‘r aruzning biror-bir vazniga tushmaydi.  $4+4+4+3=15$  bo‘g‘inli barmoq vazniga to‘g‘ri keladi. Shu o‘rinda aruz vaznidan barmoq vazniga o‘tish hodisasi kuzatiladi. Ushbu she‘rni yaratishda Mug‘anniyning shakl va mavzu jihatidan jadid shoiri Hamzadan ta‘sirlanishi kuzatiladi:

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,  
Zulmat ichra kechsa umri mohi tobon istamas,  
Uxlama o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.  
O‘zga millat uchsalar hikmat topub suyi samo,  
Bizni ellar loaqal er uzra davron istamas,  
Uxlama o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.  
O‘zgalar etmakda har kun bing sano‘i’ ixtiro,  
Biz aholi topmoqa beranj bir non istamas,  
Uxlama o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

Hamzaning “Dardiga darmon istamas” nomli musallasi a-a-b, d-a-b, f-a-b tarzida qofiyalangan. Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotida yaratilgan musallaslarning hech qaysi biri shakl jihatidan musallaslarning qofiyalanish talabiga javob bermaydi. Yuqoridagi she‘r aruzning ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan. Bu bahrning rukni foilotun / foilotun / foilotun / foilun tarzida tuzilgan bo‘lib, har rukn to‘rt hijodan iborat, bir misra jami o‘n beshta hijodan iborat. Mug‘anniy musallasi ham  $4+4+4+3=15$  bo‘g‘inli tartibda tuzilganligi jihatidan Hamza musallasiga juda yaqin. Faqat Hamza aruz vaznida, Mug‘anniy esa barmoq vaznida yozadi. Musallasning mana shu ikkita namunasida ham hijo/bo‘ginlar sonining bir xilligi, rukn/turoqlanish tartibining bir xilligi XX asr boshlaridagi aruz vaznidan barmoq vazniga o‘tishning yaqqol misolidir.

Hamza o‘zining musallasini “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” to‘plamining “Oq gul” qismiga kiritadi. Bu to‘plam aslida xalq kuylarini saqlab qolish uchun yaratilgan. Hamza ma’rifatparvarlik g‘oyalari, millatni uyg‘otishga qaratilgan fikrlarini xalq ijrosidagi qo‘shiqlarning so‘zlari o‘rniga kiritish orqali xalq qalbiga oson kirib borishini ta’minlagan. Hamzaning ushbu musallasi Do‘st Mavloniy kuyiga solingan. Mug‘anniy esa o‘z musallasiga “Ozarbayjon nag‘masi bo‘yuncha. Xorazm xalqig‘a” deb sarlavha qo‘yadi. Sarlavhadan ko‘rinadiki, Mug‘anniy o‘z she’rini ozarbayjon kuyi asosida yaratgan. Bilamizki, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida ozarbayjon adabiyotidan, ayniqsa, Fuzuliy ijodidan ta’sirlanish kuzatiladi. Mug‘anniy ham xuddi Hamza singari ma’rifatparvarlik va millatparvarlik g‘oyalarini xalqqa oson singdirish maqsadida ozarbayjon kuylaridan foydalangan bo‘lishi ehtimol. Mug‘anniy yaratgan ushbu musallasning mavzusi, g‘oyasi va shakli ham o‘zbek she’riyati uchun yangilikdir.

**Xulosa.** Musammatlarda mumtoz an’analar saqlanishi bilan bir qatorda yuksalish, yangilanish, mazmunan o‘zgarish sodir bo‘ldi. Musallas shaklida xalq kuylari asosida milliy ashulalar uchun milliy she’rlar yaratildi. Bu davr she’riyatining barcha janrlarida aruz vazni saktaliklarga uchray boshladi. Barmoq va erkin vaznlarga o‘tish hodisalari kuzatila boshladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеърятининг ривожланиши. Филол. фан. номз. дисс. автореф... – Тошкент, 1996.
2. Амонov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 256 b.
3. Юлчиев Қ. Ўзбек шеърятнда бирлик ва учлик шеър поетикаси. Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2017. – 149 б.
4. Мамиралиев Q. Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida janrlar modifikatsiyasi. – Toshkent: Anorbooks, 2024. – 208 b.
5. Рабғузий Носируддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
6. Yug‘urumiya [Matn]: to‘plam / To‘plovchi: Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li. – Toshkent: Anorbooks, 2026. – 80 b.